



QISHLOQ XO‘JALIGI VA VETERINARIYA SOHALARIDA  
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA  
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**VETERINARIYA BO‘YICHA  
FELDSHERLAR VA TEXNIKLAR**



“Veterinariya bo‘yicha feldsherlar va texniklar” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Qishloq xo‘jaligi va veterinariya sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

# KASBIY STANDART

## Veterinariya bo'yicha feldsherlar va texniklar

---

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0122



### I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Veterinariya texnigi", "Veterinariya feldsheri", "Hayvonlarni davolash va kalligini oldini olish bo'yicha veterinar", "Veterinariya sanitari" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 21-avgustdagi “Veterinariya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi O‘RQ-864-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-noyabrdagi “O‘simliklarni himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-877-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Pillachilik sohasida kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-85-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrda “Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-205-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta‘limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta‘lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-aprelda “2023-yilda Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-113-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 369-son qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo‘llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

## II. Kasbiy standartning pasporti

1	Kasbiy standartning nomi:	Veterinariya bo'yicha feldsherlar va texniklar	
2	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Hayvonlar va parrandalarni kasalliklarining oldini olish, tashxis qo'yish va davolash	
3	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	N seksiyasi Professional, ilmiy va texnik faoliyat; 75 Veterinariya faoliyati; 75.0 Veterinariya faoliyati; 75.00 Veterinariya faoliyati; 75.00.0 Veterinariya faoliyati.	
4	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Belgilangan hududdagi aholi punktlarida hayvonlar kasalliklarining oldini olish va ularni bartaraf yetish bo'yicha veterinariya tadbirlarini tashkil qiladi va o'tkazish, hayvonlarning diagnostik tadqiqotlari va immunizatsiyasini, yuqumli kasalliklar o'choqlarini yo'q qilish, kasal hayvonlarni davolashni amalga oshirish. Hayvonlarni so'yishdan oldin ko'rikdan o'tkazish, so'yish mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasini va go'shtni markalashni amalga oshirish	
5	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	<b>Kasb kodi va nomi:</b>	<b>TMRdagi malaka darajasi:</b>
		51640008 Veterinariya sanitari	3
		32400005 Veterinariya feldsheri	5
		32400007 Veterinariya texnigi	5
		32400 Hayvonlarni davolash va kalligini oldini olish bo'yicha veterinar	5

### III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasb		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kod va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	51640008 Veterinariya sanitari	A1.3	Hayvonlar kasalliklari paydo bo'lishining oldini olish uchun veterinariya-sanitariya tadbirlarini o'tkazish	A1.01.3	Chorvachilik va parrandachilik binolariga texnik xizmat ko'rsatish
				A1.02.3	Chorvachilik binolarida dezinfeksiya, dezinfeksiya va deratizatsiya ishlarini amalga oshirish
2	32400005 Veterinariya feldsheri	B1.5	Hayvonga tashxis qo'yish. Davolash muolajalarini o'z vaqtida samarali o'tkazish, va qo'shimcha tavsiyalar berish	B1.01.5	Klinik tekshiruvga tayyorlash. Sifat talablariga muvofiq ishlash. Dori-darmonlar, asboblardan va jihozlarni tayyorlash
				B1.02.5	Hayvonga tashxis qo'yish, davolash muolajalarini o'z vaqtida samarali o'tkazish
3	32400007 Veterinariya texnigi	D1.5	Profilaktik, diagnostika va davolash tadbirlarini o'tkazish	D1.01.5	Hayvonlar va parrandalarni kasalliklarining oldini olish
				D1.02.5	Tibbiy va diagnostik veterinariya manipulyatsiyalarini bajarish
4	32400 Hayvonlarni davolash va kalligini oldini olish bo'yicha veterinar operatori	E1.5	Barcha turdagi hayvonlarga veterinariya xizmatini ko'rsatish	E1.01.5	Hayvonlarni klinik tekshiruvdan o'tkazish
				E1.02.5	Kasal hayvonlarni davolash tadbirlarini o'tkazish

#### IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Veterinariya sanitari	
Mashg'ulot nomining kodi:	51640	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kamida 3 oylik amaliy stajirovkadan o'tganligi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> <li>– chorva hayvonlariga zarar yetkazmaslik;</li> <li>– yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni o'zlashtirishga intilish;</li> <li>– samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish;</li> <li>– professional rivojlanish ustida ishlash;</li> <li>– jamoa bilan ishlash va ish jarayonini muvofiqlashtirish</li> </ul>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	o'rta maxsus ta'lim, umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	–	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-4 razryadli Veterinariya sanitari	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi</b>	<b>Kasbning nomi</b>
	5	Veterinar hamshira
<b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>		
<b>Kodi va nomi</b>	<b>Mehnat vazifalari</b>	
<b>A1.3-</b> Hayvonlar kasalliklari paydo bo'lishining oldini olish uchun veterinariya-sanitariya tadbirlarini o'tkazish	<b>A1.01.3-</b> Chorvachilik va parrandachilik binolariga texnik xizmat ko'rsatish	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Chorvachilik va parrandachilik binolarida mavsumiy sanitariya va zoogigiyenik dizenfeksiya, deratizatsiya ishlarini olib borish
		2. Chorva mollarini yuqumli, invazion kasalliklardan himoya qilish, parazitlar boshoratlar, kemiruvchilarga qarshi kurashish
		3. Hayvonlarni tashish vositalarini veterinariya-sanitariya qoidalariga muvofiqligi bo'yicha tekshirish
		4. Yaylovlar va hayvonlarni sug'orish joylarining sanitariya holatini tekshirish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Turli xil etiologiyasi hayvonlar kasalliklarining oldini olish choralari ishlab chiqish
		Biologik va parazitlarga qarshi preparatlardan foydalanish
		Biologik materialni tanlash va saqlash
<b>Bilimlar:</b>		
Turli xil etiologiyalik hayvonlar kasalliklarining oldini olish choralari		

		Biologik va parazitlarga qarshi preparatlardan foydalanish qoidalari
		Biologik materialni tanlash va saqlash tartibi
	A1.02.3- Chorvachilik binolarida dezinfeksiya va deratizatsiya ishlarini amalga oshirish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Chorvachilik va parrandachilikda ishlatiladigan chorvachilik va parrandachilik binolari, hayvonlar va parrandalar uchun vaqtinchalik turar joylar, asbob-uskunalar, inventar va jihozlarni dezinfeksiya qilish
		2. Hayvonlarning jasadlari, biologik chiqindilar va veterinariya preparatlarini utilizatsiya qilish
		3. Veterinariya-sanitariya tadbirlari natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Biologik mahsulotlarni ko'rsatmalarga muvofiq foydalanish
		Allergiya testlarini o'rnatish
		Biologik moddalarni kiritish
		<b>Bilimlar:</b>
		Etiologiyalik hayvon kasalliklari turlari va oldini olish usullari
		Parazitlarga qarshi preparatlardan foydalanish tartibi
		Biologik materialni tanlash va saqlash qoidalari
	Hayvonlarni oziqlantirish asoslari va ularga rioya qilmaslik oqibatlari	
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. Chorvachilik va parrandachilikda ishlatiladigan chorvachilik va parrandachilik binolarini, hayvonlar va parrandalar uchun vaqtinchalik turar joylarni, asbob-uskunalar, inventar va jihozlarni dezinfeksiya qilishda rahbariyat ostida mas'uliyat
<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>		Hayvonlarni fiksatsiya qilish asboblaridan samarali foydalanish

Kasbning nomi:	Veterinariya feldsheri	
Mashg'ulot nomining kodi:	32400	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kamida 3 oylik amaliy stajirovkadan o'tganligi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> <li>– chorva hayvonlariga zarar yetkazmaslik;</li> <li>– yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni o'zlashtirishga intilish;</li> <li>– samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish;</li> <li>– professional rivojlanish ustida ishlash;</li> <li>– jamoa bilan ishlash va ish jarayonini muvofiqlashtirish</li> </ul>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	–	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	–	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi</b>	<b>Kasbning nomi</b>
	5	Veterinariya feldsher-laboranti
<b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>		
<b>Kodi va nomi</b>	<b>Mehnat vazifalari</b>	
B1.5- Hayvonga tashxis qo'yish. Davolash muolajalarini o'z vaqtida samarali o'tkazish, va qo'shimcha tavsiyalar berish	B1.01.5- Klinik tekshiruvga tayyorlash. Sifat talablariga muvofiq ishlash. Dori-darmonlar, asboblar va jihozlarni tayyorlash	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Ish muhitini tashkil qilish
		2. Dori-darmonlar, asboblar va jihozlarni tayyorlash
		3. Hayvonlarni klinik tekshiruvga tayyorlash
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Kasal hayvonlarni turiga qarab fiksatsiya qilish
		Kasal hayvonlarga tashxis qo'yishda o'xshash kasalliklarni farqlash
		Kasallik turining kechishi, hayvonning tirik vazniga qarab dorilarni me'yorini belgilash
		Dorilarni yo'riqnomaga muvofiq qo'llash
		Dorilar yuborilgandan keyin hayvonlarda klinik tekshiruvlar o'tkazish
		<b>Bilimlar:</b>
		Kasal hayvonlarni qabul qilish tartibi
Kasal hayvonlarni fiksatsiya qilish usullari		
Klinik tekshiruvlarda asbob va jihozlardan foydalanish qoidalari		

		Kasal hayvonlarda qo'yilgan tashxisiga ko'ra dori-darmon me'yorlari
		Mehnatni muhofaza qilish va sanitariya qoidalari
	B1.02.5- Hayvonga tashxis qo'yish, davolash muolajalarini o'z vaqtida samarali o'tkazish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Hayvonlarga tashxis qo'yish
		2. Dori-darmonlar, asboblari va jihozlarni tayyorlash
		3. Hayvonlarda davolash muolajalarini o'tkazish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Hayvon egasidan hayvon to'g'risida anamnez ma'lumotlarini olish
		Kasal hayvonda klinik tekshiruvlar o'tkazish
		Tekshiruv natijalariga muvofiq kasal hayvonga tashxis qo'yish
		Kasallik turi va kechishiga qarab davolash uchun dorilar tayinlash
		Kasallik qo'zg'atuvchisiga ta'sir qiluvchi dorilardan foydalanish
		Kasallikni to'xtatuvchi dorilarni qo'llash
		<b>Bilimlar:</b>
		Hayvonlar fiziologiyasi va genetikasi asoslari
		Klinik tekshiruv usullari
	Tayinlangan va patogenetik dori xususiyatlari	
	Hayvonga infuziya va inyeksiya qilish usullari	
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. Chorva va parrandalarga tashxis qo'yishda rahbariyat ostida mas'uliyat
<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>		Klinik tashxis asboblariidan samarali foydalanish

Kasbning nomi:	Veterinariya texnigi	
Mashg'ulot nomining kodi:	32400	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kamida 3 oylik amaliy stajirovkadan o'tganligi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> <li>– chorva hayvonlariga zarar yetkazmaslik;</li> <li>– yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni o'zlashtirishga intilish;</li> <li>– samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish;</li> <li>– professional rivojlanish ustida ishlash;</li> <li>– jamoa bilan ishlash va ish jarayonini muvofiqlashtirish</li> </ul>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	–	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	–	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi</b>	<b>Kasbning nomi</b>
	5	Veterinariya feldsheri
<b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>		
<b>Kodi va nomi</b>	<b>Mehnat vazifalari</b>	
D1.5- Profilaktik, diagnostika va davolash tadbirlarini o'tkazish	<b>O'qitish natijalari</b>	
	<b>Mehnat harakatlari:</b>	
	1. Hayvonga tashxis qo'yish	
	2. Davolash muolajalarini o'z vaqtida samarali o'tkazish	
	3. Hayvonlarni davolashda qo'shimcha tavsiyalar berish	
	<b>Ko'nikmalar:</b>	
	Hayvonlar va parrandalarni to'g'ri parvarishlash, oziqlantirish va saqlash qoidalariga amal qilish	
	Hayvonlarning umumiy holatini kuzatish va kasallik alomatlarini aniqlash	
	Tezkor klinik tekshiruvlar o'tkazish	
	Veterinariya dori vositalarini to'g'ri tanlash va qo'llash	
Hayvon egalariga parvarish va kasalliklarning oldini olish bo'yicha tavsiyalar berish		
<b>Bilimlar:</b>		
Hayvonlar va parrandalarda uchraydigan asosiy kasalliklar va ularning sabablari		

		Kasalliklarning oldini olish (profilaktika) usullari
		Veterinariya dori vositalarining turlari, ta'siri va qo'llash qoidalari
		Diagnostika asoslari va klinik belgilar
		Mehnatni muhofaza qilish va biologik xavfsizlik qoidalari
	D1.02.5-Tibbiy va diagnostik veterinariya manipulyatsiyalarini bajarish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Hayvonlarni tekshiruv va muolajalar uchun to'g'ri usulda ushlab turish (fiksatsiya qilish)
		2. Diagnostik manipulyatsiyalarni bajarish (palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya)
		3. Inyeksiya turlarini amalga oshirish
		4. Bog'lash, yara tozalash va antiseptik ishlov berish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Veterinariya manipulyatsiyalarini texnika va xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda bajarish
		Hayvonning holatiga qarab muolaja usulini tanlash
		Tibbiy va diagnostik asboblarni to'g'ri ishlatish
		Dori vositalarini dozalash va qo'llash
		Gigiyena va antiseptika qoidalariga amal qilish
		Hayvonlar bilan ehtiyotkor va insonparvar munosabatda bo'lish
		Olingan diagnostik ma'lumotlarni qayd etish va tahlil qilish
		<b>Bilimlar:</b>
		Hayvonlar anatomiyasi va fiziologiyasi asoslari
		Veterinariya tibbiyotida qo'llaniladigan asosiy manipulyatsiyalar
		Inyeksiya va boshqa muolajalarni bajarish texnologiyasi
	Antiseptika va aseptika qoidalari	
	Veterinariya dori vositalarining turlari va qo'llash tartibi	
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. Veterinariya manipulyatsiyalarini belgilangan ko'rsatmalar asosida mustaqil bajarish
		2. Hayvon salomatligi uchun javobgarlik
<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>		Sterilizator va qaynatish moslamalaridan samarali foydalanish

Kasbning nomi:	Hayvonlarni davolash va kalligini oldini olish bo'yicha veterinar operatori	
Mashg'ulot nomining kodi:	32400	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	– chorva hayvonlariga zarar yetkazmaslik; – yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni o'zlashtirishga intilish; – samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; – professional rivojlanish ustida ishlash; – jamoa bilan ishlash va ish jarayonini muvofiqlashtirish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	–	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	–	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi</b>	<b>Kasbning nomi</b>
	4	Avtomatlashtirish obyektlari texnik texnologi
<b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>		
<b>Kodi va nomi</b>	<b>Mehnat vazifalari</b>	
E1.5-Barcha turdagi hayvonlarga veterinariya xizmatini ko'rsatish	E1.01.5-Hayvonlarni klinik tekshiruvdan o'tkazish	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqish uchun xarajatlar sarfi va iqtisodiy holatni baholash
		2. Dispanserlash orqali poda sindromatikasini tahlil qilish
		3. Fermalarda mahsuldor hayvonlarni saqlash va oziqlantirish sharoitlarini tahlil qilish
		4. Hayvonlarni klinik tekshiruvdan o'tkazish
		5. Laboratoriya tekshirishlari uchun patmateriallar olish
		6. Patmateriallarni tekshirish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ketgan sarf xarajatlarni tahlil qilish
		Hayvon kasallanish darajasini aniqlash
		Mahsuldor hayvonlarda uchraydigan yuqumsiz, akusher – ginekologik kasalliklarni barvaqt aniqlash
Laboratoriya tekshiruvlari uchun qon, sut, siydik namunalarni olish		

		Klinik tekshirish orqali statusni aniqlash
		<b>Bilimlar:</b>
		Hayvonlar fiziologiyasi va genetikasi asoslari
		Poda sindromatikasi asoslari
		Hayvonlarda modda almashinuvi darajasi va akusher ginekologik kasallik xususiyatlari
		Klinik tekshiruv usullari
		Laboratoriya tekshiruvlari uchun qon, sut, siydik namunalari olish tartibi
	Normal tahlil natijalari	
	E1.02.5-Kasal hayvonlarni davolash tadbirlarini o'tkazish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Hayvonlarning kasalligi sababini aniqlash
		2. Davolash tartibini tuzish
		3. Davolash natijalarini qayd etish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Kasal hayvonlarning umumiy holati va kasallik patogenezini aniqlash
		Davolash davomiyligi, preparatlarni tanlash va qo'llash
		Kasal hayvonni doimiy nazorat qilish
		Hayvonning turi va yoshini hisobga olgan holda davolash
<b>Bilimlar:</b>		
Kasal hayvon organ va to'qimalarida kechayotgan patologik jarayon xususiyatlari		
Kasal hayvonlarga qo'llanilgan dori vositalarining ta'sir etish mexanizmi		
Kasal hayvonlar holati parametrlari		
<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. Kasal hayvon va parranda turlariga davolashda ularning xavfsizligi va salomatligi uchun javobgarlik	
<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>	Hayvonlarga tashxis qo'yish va davolash vositalaridan samarali foydalanish	

## V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

### 5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Qishloq xo'jaligi va veterinariya sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 2026-yil 1-martdagi 2-son bayoni
2	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0081-son xulosa, 23.02.2026
3	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 19.01.2026
4	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	18.01.2031

### 5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

#### Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

(tashkilot nomi)

Universitet rektori

Yunusov Xudaynazar Beknazarovich

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

### 5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar)lar to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Qishloq xo'jaligi vazirligi Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassisi	Suvanqulov Sh. M.
2	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O'IB prorektori	Elmuradov A. A.
3	Samarqand veterinariya meditsinasi texnikumi direktori	Bazarov S. R.
4	Samarqand veterinariya meditsinasi texnikumi ICHTBDO'	Xayitov A. G'.
5	Samarqand viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari	Baqoyev O. A.
6	"Chorva sut servis" MCHJ rahbari	G'ulomov A. M.



**QISHLOQ XO‘JALIGI VA VETERINARIYA SOHALARIDA KASBIY  
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA  
TARMOQ KENGASHI**

**KASBIY STANDART**  
**VETERINARIYA BO‘YICHA FELDSHERLAR**  
**VA TEXNIKLAR**